

**Mardonova Dilrabo Shirinboyevna,**

"Ipak yo'li" xalqaro Turizm va madaniy  
meros universiteti, 08.00.17 - « Turizm va  
mehmonxona » ixtisosligi boyicha 1-kurs tayanch  
doktorant

# MAMLAKATIMIZDA МЕХМОНХОНА БИЗНЕСИНГ ХОЛАТИ ВА РИВОЈЛАНІШ ТЕНДЕНСИЯЛАРИНІНГ ТАХЛІЛІ, МАВJУД МУАММОЛАР ВА УЛАРНІНГ YЕCHИMLАRІ

UO'K: 640.4

DOI: 10.34920/EIF/VOL\_2023\_ISSUE\_2\_2

## **MARDONOVA D.SH. MAMLAKATIMIZDA МЕХМОНХОНА БИЗНЕСИНГ ХОЛАТИ ВА РИВОЈЛАНІШ ТЕНДЕНСИЯЛАРИНІНГ ТАХЛІЛІ, МАВJУД МУАММОЛАР ВА УЛАРНІНГ YЕCHИMLАRІ**

Mazkur maqolada mamlakatimizda mehmonxona biznesining holati, rivojlanish tendensiyalari va ularning tahlili hamda mazkur sohadagi mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari ko'rib chiqilgan. O'zbekistonda barcha toifadagi mehmonxonalar va mehmonxonalarining o'rtacha bandligi bo'yicha 2022-yil mart oyidagi holatiga doir statistik ma'lumotlar tahlili keltirib o'tilgan. Bundan tashqari hozirgi kunda respublikamizda mehmonxonalar soni nechta ekanligi va viloyatlar kesimida mehmonxonalarining taqsimlanishi tahlil qilingan.

Tayanch so'z va tushunchalar: mehmonxona, mehmonxona nomerlari, xizmatlar diversifikatsiyasi, mehmonxona turlari, turizm, turist, ichki sayyoh, tur paket, ichki turizm.

## **МАРДОНОВА Д.Ш. АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ И ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В НАШЕЙ СТРАНЕ, СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ**

В данной статье рассмотрено состояние гостиничного бизнеса в нашей стране, тенденции развития и их анализ, а также существующие недостатки в этой сфере и пути их решения. Представлен анализ статистических данных о средней загрузке всех категорий гостиниц Узбекистана по состоянию на март 2022 года. Кроме того, было проанализировано количество гостиниц в нашей республике и состояние гостиниц в регионах.

Ключевые слова и понятия: гостиница, гостиничные номера, диверсификация услуг, типы гостиниц, туризм, турист, внутренний турист, пакетный тур, внутренний туризм.

## **MARDONOVA D.SH. ANALYSIS OF THE STATE AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE HOTEL BUSINESS IN OUR COUNTRY, EXISTING PROBLEMS AND THEIR SOLUTIONS.**

In the article is presented results of the hotel business in Uzbekistan analysis, the development trends, as well existing shortcomings in this field and their solutions. The statistical data for the average occupancy of all categories of hotels in Uzbekistan was presented for the of March 2022. In addition, the number of hotels in our Republic and the dissemination of hotels in regions were analyzed.

Key words and concepts: hotel, hotel numbers, diversification of services, hotel types, tourism, tourist, domestic tourist, package tour, domestic tourism.

### Kirish.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi jahon bozorlarida turizm sohasidagi keskin o'zgarishlar davriga to'g'ri keldi. Jahonda turizm iqtisodiyotning ahamiyatli tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Ma'lumki, turizm industriyasi millionlab ishchi va xizmatchilarni ish joylari bilan ta'minlab, ular kasb mahoratining o'sishiga imkoniyatlar yaratib bermoqda. Hozirgi kunda dunyo yalpi ichki mahsuloti (YAIM)ning 10 %, umumiyligi eksport hajmining 7 % turizm hissasiga to'g'ri kelmoqda. Butunjahon turistik tashkilotining (BTT) ma'lumotlariga binoan turizm dunyo miqyosida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha to'rtinchini o'rinni (avtomobil, kimyo va yoqilg'i mahsulotlari eksportidan keyin), daromadlilik darajasi bo'yicha uchinchini o'rinni (neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik sanoatidan keyin) egallab kelmoqda<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi hukumati turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. So'nggi yillarda jahon hamjamiyati O'zbekistonning turizm sohasida ulkan va tub o'zgarishlarni e'tirof etmoqda. Buning isboti sifatida turizmni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, boshqaruv tizimini yaratish, turizm turlarini diversifikasiya qilish, O'zbekistonning xalqaro maydonda tan olinishi va jozibadorligini ta'minlashga qaratilgan hujjatlar qabul qilinganligini e'tirof etish lozim.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»ninig 35-maqсадидаги turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikasiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi<sup>2</sup>. O'zbekistondagi umumiyligi turistik oqimning 76,2 % Samarqand, Buxoro, Toshkent va Xiva shaharlariga to'g'ri keladi, 24,6 % xorijiy turistlar Farg'ona vohasiga qiziqishmoqda. Turistik salohiyatning 40 % Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga, 37 % Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlariga, 16 % Farg'ona vohasi va Surxondaryo

<sup>1</sup> Концепция развития туристической отрасли Республики Узбекистан на среднесрочную перспективу.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. 50 % hududlarni egallagan qolgan viloyatlarga turizmning atigi 7 % salohiyati to'g'ri kelmoqda<sup>3</sup>. Ushbu holat, barcha hududlarda turizmni rivojlantirishni va buning uchun zamonaviy mehmonxonalarini barpo etishni taqozo qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2018 yil 3 fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2018 yil 6 fevraldagagi «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 2018 yil 7 fevraldagagi «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hamda mehmonxona xo'jaliklari samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy va metodologik muammolarini hal qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Birgina, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" dashturining amalga oshirilishi mamlakatimizda sayohat madaniyatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatdagi ichki sayohatlarning umumiyligi soni 2016-yildagi 8,8 milliondan 2019-yilda 14,7 milliongacha ko'paydi va 2022-yilda 8.5 millionni tashkil qildi.

So'nggi 4 yil ichida O'zbekistonda 833 ta yangi mehmonxonalar jumladan yirik, o'rta va kichik mehmonxonalar foydalanishga topshirildi. Joylashtirish fondlarining umumiyligi soni 1442 taga yetdi. Xonalar soni bilan - 33,4 ming dona va 71,2 ming o'rinni tashkil etdi. Ayni paytda O'zbekistonda yaqin kunlarda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan yuzlab yangi mehmonxona loyihalari tuzilmoxqda<sup>4</sup>.

2022-yil mart oyida olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekistonda barcha toifadagi mehmonxonalarining o'rtacha bandligi bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlili ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatdi. 28, 29, 30-mart kunlari bo'lgan uch kunlik davrdagi

<sup>3</sup> Komilova N.A., Usmanova L.I. Развитие туризма в Узбекистане: проблемы и реалии. SamISI, O'zbekiston: turizm, iqtisodiyot va ekologiya. Ilmiy to'plam. – Samarqand, 2019, - 26-30 betlar.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Turizm va madaniy meros vazirining o'rinosbasari – B.Shahriyorovning nutqi. Invest@uzbektourism.uz www.uzbektourism.uz

yuklama butun respublika bo'yicha 70,8 foizdan ortiq, Toshkent shahrida 83,6 foiz, Samarqandda 62,3 foiz, Qoraqalpog'istonda 93,9 foiz, Xorazmda 56,3 foiz, Buxoroda 46 foizni tashkil etdi. Bu juda yaxshi ko'rsatkichlar bo'lib, turizm industriyasining tiklanishidan, mehmonxona biznesi uchun esa rentabellikning tez tiklanishidan darak berib turibdi.

**Ilmiy muammoning qo'yilishi.** Turizm sohasi va uning tarkibida mehmonxona xo'jaligi iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida jahon va mamlakatimiz olimlari diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, mazkur muammoning ilmiynazariy va metodologik hamda amaliy muammolini xorijlik olimlardan F.Kotler, Dj.Bouen, Dj.Meykens, Dj.Uoker, L.F.Xodorkov, Yu.F.Volkov, A.D. Chudnovskiy, N.M.Kuldoshina, A.Braymer, A.L.Lesnik, I.P.Matsitskiy, A.V.Chernishev, A.B.Kosolapov, V.A.Kvartalnov, M.V.Yakimenko, A.Ye.Saak, Dj.A.Michelli, L.P.Shmatko, L.V.Jolobova, G.I.Lyashko, D.S.Ushakov, V.G.Fedsov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda turizm sohasi, uning tarkibiy qismi bo'lgan mehmonxona xo'jaligi muammolini tadqiq qilish bilan I.S.Tuxliev, M.K.Pardaev, T.Abdullaeva, M.T.Alieva, X.M.Mamatkulov, R.Haitbaev, D.X.Asanova, A.Toksanov, A.S.Soliev, B.Ruzmetov, B.Sh.Safarov, M.Alimova,

<sup>1</sup> Котлер Ф., Боуэн Дж., Мейкенс Дж. Маркетинг. Гостеприимство и туризм. / Пер. с англ. – М.: ЮНИТИ, 1998., Уокер Дж. Введение в гостеприимство. Учеб. Пособие / Пер. с англ. – М.: ЮНИТИ, 1999., Ходорков Л.Ф. Мировое гостиничное хозяйство. – М.: 1991., Волков Ю.Ф. Гостиничный и туристический бизнес. – Ростов н/Д: Феникс, 2009. – 637 с., Туризм и гостиничное хозяйство / Под ред. А.Д. Чудновского. – М.: Эксмо, 2000., Кулдошина Н.М. Экономика и финансы гостиничного бизнеса. – М.: МАТГР, 2000., Браймер А. Основы управления предприятиями и организациями индустрии гостеприимства. – М.: 1994, Организация и управление гостиничным бизнесом. / Под ред. А.Л.Лесника, И.П.Мациского, А.В.Чернишева – М.: 2000., Саак А.Е., Якименко М.В. Менежмент в индустрии гостеприимства (гостиницы и рестораны). – СПб.: Питер, 2007. – 432 с., Косолапов А.Б. Теория и практика экологического туризма. – М.: 2005., Кварталнов В.А. Теория и практика туризма. – М.: Советский спорт, 2004., Мичелли Дж.А. Риц-Карлтон: золотой стандарт гостиничного бизнеса нового тысячелетия / Джозеф Мичелли: пер. с англ. В.С.Иващенко. – М.: Эксмо, 2009. – 320 с., Туризм и гостиничное хозяйство / Под ред. Л.П.Шматко. – Ростов н/Д: Феникс; Издательский центр «Март», 2010. – 352 с., Федсов В.Г. Культура гостинично-туристского сервиса. – Ростов н/Д: Феникс, 2008. 503 с., [www.rej.ru? www.hrs.ru, www.reksoft.ru, www.HotelKonkultingGroup.ru, www.allstarshilton.com, www.allstarshilton.com](http://www.rej.ru? www.hrs.ru, www.reksoft.ru, www.HotelKonkultingGroup.ru, www.allstarshilton.com, www.allstarshilton.com).

A.N.Xalikulov, N.Muminov<sup>2</sup> kabi iqtisodchi olimlar shug'ullanmoqdalar.

Ushbu iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlarida turizm sohasi va mehmonxona xo'jaliklarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, ularning mamlakatimiz va hududlardagi o'ziga xos xususiyatlari, sohaga innovatsiyalarni joriy qilish va samaradorligini oshirish muammolari o'z ifodasini topgan. Mazkur tadqiqotlarda mehmonxona xo'jaligi faoliyatiga oid masalalar turizmning infratuzilmasi sifatida qarab chiqilgan. Sohada xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish masalalari, ularni baholash va tahlil qilish yo'llari tadqiqot ob'ehti sifatida o'rganilgan.

Shuning bilan olimlarimiz tomonidan mamlakatimiz mehmonxona biznesida xizmatlar ko'rsatish sifatini yanada oshirish maqsadida turizm klasterlarini tashkil etish hamda mehmonxona biznesi resurslaridan foydalanishning ustuvor yo'naliishlari va boshqa masalalar yetarlichcha o'rganilmagan. E'tirof etish kerakki so'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasida bir qator sharoit va imkoniyatlar yaratilgan bo'lismiga qaramasdan, bu boradagi mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayotgani ham kuzatilmoqda. Bu ayniqsa xorijiy va ichki turistlarning sayohati mobaynida yoki mavsumiy hamda doimiy ravishda o'tkazilib kelinadigan festivallar davrida mehmonxona nomerlarining yetishmasligi, nomerlarning oldindan bronlashtirilganligi, mehmonxonada ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining pastligi bir qancha muammolarga sabab bo'lishi bilan belgilandi.

Shuning uchun, tadqiqotning maqsadi mehmonxona biznesida xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish hamda

<sup>2</sup> Алиева М. Т., Мирзяев М. А. Turizm asosları. O'quv qo'llanma.-Т.: O'zbekiston faylasuflar nashriyoti. 2011.; Boltabayev M. R. Tuxliyev I. S. Safarov B. Sh. Abduxamidov S. A. "Turizm: Nazariya va amaliyot"//Monografiya – Toshkent:"Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018.— 190 s.; Bekmurodov A.Sh., Karrieva Ya.K., Ne'matov I.U., Nabiev D.H., Kattaev, N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. –T.:Iqtisodiyot, 2010.-166 b.; Комилова Н.А., Усманова Л.И. Развитие туризма Узбекистана: проблемы и реалии. SamISI, O'zbekiston: turizm, iqtisodiyot va ekologiya. Ilmiy to'plam. – Samarcand, 2019, - 26-30 betlar.; Муминов Н.Г. Перспективы развития государственного управления в сфере туризма в Узбекистане // Экономика и финансы (Узбекистан), 2022 г, №5, С.2-10.; Muminov Nozim Gaffarovich. Systematization of factors affecting the development of tourism. "Учинчи ренессансни шакллантиришнинг ижтимоий-иқтисодий муаммолари" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - Т.: «IlmZiyo-Zakovat» нашриёти, 2022. – Б.393-395.

**1-jadval. O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni (mln. nafar sayohatchi)<sup>1</sup>**

2016-yil	2,03
2017-yil	2,7
2018-yil	5,3
2019-yil	6,7
2020-yil	1,5
2021-yil	1,7
2022-yil (9 oy)	3,6

sohadagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan istiqbolli yo'llarni ishlab chiqishdan iboratdir. Va bu kabi muammolarni bartaraf etish borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy va tadqiqotlarni amalga oshirish usullari metodologik ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning ob'ekti** mamlakatimizda turizmn rivojlantirish tizimida mehmonxona xo`jaligi xizmatlarini ko`rsatuvchi faoliyat bilan shug'ullanadigan xo`jalik yurituvchi sub`ektlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning empirik manbaini** anketa so'rovnomalari va statistik ma'lumotlar tahlili tashkil etdi.

**Asosiy tahlil va natijalar.** Bugungi kunda O'zbekistonda mehmonxona sanoati jadal rivojlanmoqda. O'zbekistonda jami 1500 ga yaqin mehmonxona mavjud bo'lib, ularning umumiyy sig'imi 9000 ta xonani tashkil etadi<sup>2</sup>. O'zbekiston mehmonxonalar har qanday did va byudjetga mos keladigan qulay ikki yulduzli mehmonxonalaridan besh yulduzli hashamatli mehmonxonalargacha bo'lgan bizning did va dunyo qarashlarimizni ifoda etib turuvchi dizaynlar asosida barpo etilgan. Hozirgi kunda O'zbekistonning yirik shaharlari: Toshkent, Samarqand, Buxoro va Urganch hududida xalqaro miqyosda mashhur nomga ega va jahon andozalariga javob beradigan mehmonxonalar mavjud. O'zbekistondagi yulduzlarni tasniflashning rasmiy tizimi xona o'lchamlari, xizmatlar, liftning mavjudligi, dekoratsiya, xodimlarning malaka darajasi va shu kabi standart omillarga asoslanadi.

2019-2022-yillarda O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyoohlarni sonini tahlili, o'sib boruvchi dinamikani ko'rsatmoqda. 2019-yilda pandemiyadan oldingi davrda yurtimizga 6,7 mln, 2022-yilda esa 3,6 mln nafar xorijiy fuqarolar tashrif buyurgan. 2021 yilda mehmonxonalarda istiqomat qilgan turistlar

soni 37,6 ming bo'lib, 2022-yilda bu ko'rsatkich deyarli ikki barobarga oshgan.

2022-yil mart oyida mehmonxona xizmatlari dan foydalangan O'zbekiston mehmonlari tarkibida mahalliy sayyoohlarni mamlakat fuqarolari dan tashqari Rossiya – 23,4 foiz, Qozog'iston – 18,9 foiz, Tojikiston – 14,4 foiz, Turkiya – 7,7 foiz, Qирг'изистон – 6,3 foizi, Belarus – 4,6 foizi, Xitoy – 3,2 foizi, Fransiya – 1,7 foizni tashkil etdi.

Ayni paytda O'zbekiston hududi xorijiy sayyoohlarni qabul qilishga har tomonlama tayyor. Xorijlik sayyoohlarni uchun keng ko'lamlı imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, barcha sayohat chekllovleri olib tashlandi, 100 dan ortiq davlatlarga O'zbekiston hududiga vizasiz rejim orqali tashrif buyurish yo;lga qo'yildi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonda turizm sohasining jadal tiklanishida ijobiy tendensiylar kuzatilmoqda va yuqorida raqamlar 2022-yil oxiriga kelib 3.6 million nafargacha xorijiy sayyoohlarni tashrif buyurga nini ko'rsatdi<sup>3</sup>.

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda mavjud mehmonxonalarning eng ko'pi — 300 tasi Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda. Hududlar kesimida mehmonxonalar, mehmon uylari va turoperatorlar soni quyidagicha:

3-jadvalda turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida mahalliy va MDH mamlakatlardan hamda uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan turistlarning taqsimlanishi ko'rsatilgan (2022-yil). Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, yurtimizga eng ko'p sayyooh Markaziy Osiyo mintaqasidan tashrif buyurgan bo'lib, ularning soni 51674 kishiga yetgan. MDH mamlakatlardan kelganlar soni 5327 kishini tashkil qilgan. Uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyuruvchilar soni esa 8073 ming kishidan iborat bo'lgan.

<sup>1</sup> UNWTO

<sup>2</sup> Stat.uz.

<sup>3</sup> UzDaily. Advisor to the Silk Road Office at UNWTO  
Sh.Isakulov

**2-jadval<sup>1</sup>. Mehmonxonalar, mehmon uylari va turoperatorlar soni (01.10.2022)**

T/r	Viloyatlar	Mehmonxonalar	Xostellar	Turoperatorlar
1.	Andijon	20	14	37
2.	Buxoro	171	69	116
3.	Jizzax	28	13	10
4.	Qashqadaryo	36	28	20
5.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	27	20	49
6.	Navoiy	29	29	22
7.	Namangan	26	8	55
8.	Samarqand	126	44	187
9.	Sirdaryo	13	14	11
10.	Surxondaryo	42	9	38
11.	Tosh.viloyati	39	45	49
12.	Tosh.shahri	300	181	892
13.	Farg'ona	43	24	62
14.	Xorazm	59	21	64

**3-jadval<sup>2</sup>.**

Samarqand	Jami	Turish muddati bo'yicha					
		1-3 kun tunash	4-7 kun tunash	8-28 kun tunash	29-91 kun tunash	92-182 Kun tunash	183-365 kun tunash
Joylashtirilgan Shaxslar, jami	65074	58311	3883	2672	143	6	59
Shu jumladan:							
O'zbekistondan	51674	46306	2850	2355	102	3	58
MDH mamlakatlardan	5327	4825	347	124	29	2	-
Uzoq xorijiy mamlakatlardan	8073	7180	686	193	12	1	1

Sayyohlarning asosiy qismi Qozog'iston, Tojikiston, Qирг'изистон, Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Afg'oniston, Xitoy, Koreya Respublikasi, Hindiston kabi davlatlardan tashrif buyurgan.

O'zbekistonga tashrif buyurganlar orasida yaqin qarindoshlar va do'stlarini ko'rishga kelganlar soni 81,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, dam olish uchun kelganlar 15,5 foizni, boshqa sabablar, ya'ni, davanish, xaridlar, tijorat bilan bog'liq uchrashuvlarda ishtirok etish hamda ta'lim olish maqsadida kelgan xorijliklar soni 2,7 foizni tashkil etgan.

**Empirik о'rganish natijalari.**

Tadqiqodchi olimlar bilan hamkorlikda aqliy hujum uslubida bir nechta savollar ishlab chiqildi va so'rovnomaga o'tkazildi. So'rovnomaga ko'ra:

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Turizm va madaniy meros vazirining o'rinosbasari – B.Shahriyorovning nutqi. Invest@uzbektourism.uz www.uzbektourism.uz

<sup>2</sup> Stat.uz.

1. Tashrif buyurayotgan turistlarning yoshi haqida;
2. O'zbekistondagi mehmonxonalarga qancha turist tashrif buyurayotganligi haqida;
3. O'zbekistondagi mehmonxonalar ularni qoniqtirayotganligi va aksincha ekanligi haqida;
4. O'zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlar O'zbekiston mehmonxonalari haqida qanday fikr bildirishlari haqida;
5. O'zbekiston mehmonxonalarining servis xizmati ularga yoqish yoki yoqmasligi haqida;
6. O'zbekistondan tashqari boshqa chet el davlatida ham bo'lgan yoki bo'limganligi haqida;
7. Turistlar xorijiy mamlakatlarning nufuzli va katta mehmonxonalari haqida qanday fikrda ekanliklari haqida;
8. O'zbekiston mehmonxonalarining yanada rivojlanishida mahalliy aholining salbiy ahamiyati bor yoki yo'qligi haqida;
9. O'zbekistonda turizmni yanada rivojlantirish uchun yana qanday ishlarni amalga oshirish

mumkinligi haqida turli xil fikr munozaralarni va savol javoblarni to'pladik.

So'rvonomadagi savollarning elektron shakli ijtimoiy tarmoqlar va messengerlar orqali sahifalarga yuborildi. So'rvonomada jami 9 ta savol mavjud bo'lib, bunda jami 35 ta turist so'rvonomada qatnashdi.

So'rvonomalarga ko'ra birinchi savoldagi javobga ko'ra aksariyat turistlar 30-35 yosh va undan yuqori yoshda ekanligi ma'lum bo'ldi. Ikkinci savolimizga ko'ra turistlarning deyarli 41% qismi O'zbekistonga ilk marta tashrif buyurayotganligi va O'zbekiston mehmonxonalariga birinchi marta kelayotganliklari ma'lum bo'ldi. Uchinchi savolga javob 67.7% turist O'zbekiston mehmonxonalaridan qoniqqanligini aniqladik. 32.3% turistlar qoniqishmaganliklarini ma'lum qilishdi. To'rtinchi savolimizga ko'ra 35.5% turist O'zbekiston mehmonxonalarini qoniqarli deya baholadi. 51.6% turist mehmonxonalarimizni yaxshi deya baholadi. 12.9% turistlar mehmonxonalarini juda yaxshi holatda deya baholashdi. O'zbekiston mehmonxonalarining servisi 48.4% turistga yodqi va ular bundan mammun. 51.6% turistlarga mehmonxonalar servisi yoqmaganligi ma'lum bo'ldi. 80.6% turist O'zbekistondan tashqari boshqa xorijiy mamlakatlardagi mehmonxonalarga tashrif buyurishganligi va ularda sharoitlar haqida solishtirildi.

So'rvonoma va izlanishlar natijasida mehmonxona sohasida quyidagi kamchiliklar mavjud ekanligini aniqlandi.

- Mavsum mobaynida mehmonxonalar tirkibini, nomerlarning yetishmasligi..
- Aksariyat mehmonxona narxlarining yuqori ekanligi.
- Mehmonxonalarda qo'shimcha xizmatlarning kam ekanligi.
- Respublika bo'ylab barcha hududlarda mehmonxonalarning teng taqsimlanmaganligi.
- O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarning yetishmasligi. Mehmonlarning 70% xizmat vaqtini tezlashtirish uchun texnologiyadan foydalanishni xohlaydi.
- Xonalarning o'z vaqtida tozalanmasligi.
- Xodimlarning qo'pol munosabati.
- Mexanik muammolar.
- Aloqaning yaxshi emasligi, internet tarmog'ining sustligi.
- Oziq-ovqat yoki ichimliklar sifatining past darajada ekanligi.

### Xulosalar:

1. Mamlakatimiz mehmonxona biznesida xizmatlar ko'rsatish faolligini oshirish strategiyasini shakllantirish orqali mehmonxonalar salohiyatini yana oshirish mumkin.

2. Turizm klasterlarini tashkil etish asosida mehmonxona biznesi resurslaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish zarur. Chunki, aynan turizm sohasida klasterni rivojlantirish orqali sohada juda ulkan daromad va natijalarga erishish mumkin.

3. Hududlarda davlat-xususiy sherikchiligi mexanizmi orqali mehmonxona biznesida sifatli xizmat ko'rsatishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish nafaqat mahalliy turizmni balki xalqaro turizmni ham rivojlantiradi.

4. Ilmiy va innovatsion loyihalarni 2 barobar ko'paytirish sohada mavjud bir qator muammolarni bartaraf etadi.

5. Xorijiy markazlar, yetuk mutaxassislarini jalb qilgan holda master klasslar tashkil etish mehmonxonada ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yanada takomillashtiradi.

Mazkur izlanishlar va mavjud muammo hamda kamchiliklarni va so'rvonomada ishtiroy etgan turistlarning fikr mulohazalarini inobatga olgan holda O'zbekistonning mehmonxonalardagi turizm faoliyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi **takliflarni** kiritishni lozim topdik:

- Yosh kadrlarga yaxshiroq ishslash va izlanish kerakligi haqida bilim va ko'nikmalarni berish;
- Milliy qadriyatlarimizni turizmda yanada ko'proq aks ettirish;
- Xodimlarning mijozlarga nisbatan muomasini yaxshilash;
- Malakali kadrlarni tayyorlash;
- Taomlar va nonushtalarini yangi menu va reseptlar asosida tayyorlash;
- Madaniy hordiq chiqarish uchun xonalarni barpo etish;
- Mehmonxonalar xonalarining sharoitlarini turist talablariga mos keladigan qilib topshirish;
- Xodimlar bilan ishslash va malakasini oshirish;
- Aloqa va internet tarmog'ini yaxshilash uchun yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish;
- Sohaga xorijlik investorlarni jalb qilish va buning natijasida turizm va mehmonxona biznesining iqtisodiyotdagagi ulushini yanada oshirish.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 35-maqсад
2. Аверина О.И. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности (для бакалавров) / О.И. Аверина. — М.: КноРус, 2019. — 94 с.
3. Aliyeva M. T., Mirzayev M. A., Turizm asoslari. O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston faylasuflar nashriyoti. 2011.
4. Boltabayev M. R. Tuxliyev I. S. Safarov B. Sh. Abduxamidov S. A. "Turizm: Nazariya va amaliyot"//Monografiya – Toshkent:"Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018.— 190 s.
5. B.J.Xakimov, B.B.Alimov, U.A.Xolmirzayev, A.X.Po'latov. Iqtisodiy tahlil nazariyasi / O'quv qo'llanma : Toshkent Moliya instituti. –T.: «IQTISODMOLIYA», 2012, –240 bet.
6. Bekmurodov A.Sh., Karrieva Ya.K., Ne'matov I.U., Nabiev D.H., Kattaev, N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. –T.:Iqtisodiyot, 2010.-166 b.
7. Концепция развития туристской отрасли Республики Узбекистан на среднесрочную перспективу.
8. Комилова Н.А., Усманова Л.И. Развитие туризма Узбекистана: проблемы и реалии. SamISI, O'zbekiston: turizm, iqtisodiyot va ekologiya. Ilmiy to'plam. – Samarqand, 2019, - 26-30 betlar.
9. Муминов Н.Г. Перспективы развития государственного управления в сфере туризма в Узбекистане // Экономика и финансы (Узбекистан), 2022 г, №5, С.2-10.;
10. Muminov Nozim Gaffarovich. Systematization of factors affecting the development of tourism. "Учинчи ренессансни шакллантиришнинг ижтимоий-иктисодий муаммолари" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - Т.: «IlmZiyo-Zakovat» нашриёти, 2022. – Б.393-395.
11. [www.unwto.org](http://www.unwto.org).